

Nuh

payg'ambar qissasi



Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga Nuur tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi.

NUUR

TARJIMONLAR
GURUHI

Nuh

payg'ambar qissasi



Özkan Öze
Rassom: Sevgi İçigen

Bu kitobdagi rasmlarda payg'ambarlarning yuzlarini ko'ra olmaysiz. Chunki musulmonlar payg'ambarlarga bo'lgan hurmatlari tufayli ularning rasmlarini chizmaydilar.





Odam payg'ambar yer yuziga tushganidan beri ko'p yillar o'tdi. Uzoq yillar, yuzlab, hatto minglab yillar. Odamlar ko'paydi, yer yuzi bo'ylab yoyildi. Qishloqlar, shaharchalar, katta shaharlar tashkil topdi. Ammo yomon odamlar yaxshilardan ko'payib ketdi. Ustiga ustak, odamlar Allohni unutib, haykallarga qullik qila boshladi, ya'ni butlarga sig'inishni boshladi.


Boshiga ish tushgan butga yugurardi:
"Iltimos sendan ey but, menga buni ber,
uni ber", - derdi. Biron narsadan
qo'rqanlar butga yolvorib: "Meni asra ey
but, iltimos", - derdi. Muammolari hal
bo'lgan odamlar yana butning oldida
hozir bo'lishib: "Bizni qutqarganing
uchun katta rahmat aytamiz, ey but", -
deyishardi.





Ammo Nuh boshqacha edi! Alloh taologa shukr qiluvchi banda edi. Va u aslo Allohdan o'zgaga ibodat qilmas edi. U biror narsani xohlasa, faqat Allohdan so'rardi. Chunki hamma narsani Alloh yaratgan. Qo'rqqanida Allohdan najot so'rardi. Chunki Alloh hamma narsadan buyukdir. Va mazali bir meva yeganida, faqatgina Allohga rahmat aytardi.

Chunki faqatgina Alloh insonlar uchun mazali mevalarni yarata oladi. Butlar esa jonsiz va aqlsiz edi. Ammo ulardan nimadir so'rayotganlar ulardanda ahmoqroq edilar!





Va Alloh Nuhga payg'ambarlik berdi. Nuh
payg'ambar: "Ey qavmim", - dedi. Bu
toshdan, yog'ochdan, loydan yasalgan
haykallardan biror narsa so'rashni bas qiling,
endi! Faqat Allohdan so'rang! Va faqatgina
Allohga shukur qiling(rahmat ayting)!


Odamlar Nuh payg'ambardan juda g'azablanishdi. Ular, hatto, hujum qilishmoqchi bo'lishdi. Juda ko'p yomon so'zlar aytishdi. Va uni toshbo'ron qilish bilan qo'rqitishdi...






Nuh payg'ambar esa Allohning ular orasidan tanlagan bir elchisi edi. Va hamma unga ishonishi kerak edi. Yillar sel kabi o'tib ketdi. Lekin juda kam odam Nuhga ishondi. Ishonmaganlar (kofirlar) ishonganlar (iymon keltirganlar)ga juda yomon ishlar qilishdi.


Nuh payg'ambar qo'rqayotgan edi.
Hamda u barcha odamlar uchun
xavotir olayotgan edi. Butlarga
sig'inayotganlarga: "Bunday
qilmanglar! Siz tufayli Alloh ustimizga
bir balo yuboradi", - dedi. Ular:
"Yuboraversin-chi, ko'ramiz", -
deyishdi. "Yo Allohim!" - dedi Nuh
payg'ambar. "Men odamlarni
faqatgina Senga ishonishga chaqirdim.
Lekin ular menga qarshi chiqdilar.
Men juda xafaman!"




A colorful illustration for a children's book page. At the top left, a tree with a brown trunk and green foliage is partially visible. To its right, a bright yellow sun is partially obscured by large, white, fluffy clouds. In the center, a pair of hands in blue sleeves is shown in a gesture of prayer or supplication. At the bottom, a row of white daisies with yellow centers and green leaves is on the left, and a pink butterfly with black spots is on the right, flying above some orange flowers. The background is a plain white color.

**Alloh Nuhga: "G'amgin bo'lma", -
dedi. Va bir kema yasashni buyurdi.
Bu - katta bir kema, juda katta kema.
Juda-juda katta bir kema! Lekin Nuh
payg'ambar kema yasashni bilmas
edi. Alloh unga kemani qanday
yasashni o'rgatdi.**

Va Nuh payg'ambar darhol ishga kirishdi. U daraxtlarni kesdi, og'ochlar olib keldi. Kema sekin-asta bita boshladi va hamma juda hayron qoldi.







**Nuh payg'ambarga ishonmaganlar:
XA-xa-xa! Bu kemani qayerda
suzdirmoqchisan deyishdi?!
Nihoyat kema tayyor bo'ldi.
Qandayam katta kema edi bu!**



Alloh Nuhga butun hayvonlardan bir erkak va bir urg'ochisini olishni buyurdi. "Kemaga chiqing! Kemaga", - dedi Nuh payg'ambar. "Tezroq bo'ling! Shoshiling!"

Juft-juft hayvonlar va Allohga
iymon keltirgan insonlar
navbati bilan kemaga
chiqdilar.







Kemaning eshiklari mahkam yopildi. Va birozdan so'ng osmonda gumburlagan ovoz eshitila boshladi. So'ngra daxshatli bir yomg'ir quya boshladi. Yomg'ir yog'averdi, yog'averdi, yog'averdi. Butun yer yuzini suv qoplaguncha yog'di. Va kema ko'tarilib suzishni boshladi. Osmon ancha kunlar shu tarzda gumburlab turdi. Yomg'ir ancha kunlar yog'di. Bu bir to'fon edi.



**Kemadagilardan boshqa hech
kimsa to'fondan omon qolmadi.
Eng baland tog'lar ustiga chiqib
olganlar ham suvga g'arq bo'lishdi.**

The background of the page is a light blue sky with stylized white clouds. In the upper left and right corners, there are simple line-art clouds. The bottom half of the page features larger, more detailed blue clouds with white stars scattered throughout. A thin, curved brown line is visible on the right side, possibly representing a horizon or a celestial body.

Oradan kunlar, haftalar, oylar o'tgandan so'ng yomg'ir to'xtadi. Chunki Alloh uning to'xtashini buyurdi. Allohning issiq va sariq quyoshi katta bulutlar orqasidan yer yuziga yangitdan tabassum qilib chiqdi. Kema Judiy tog'iga sog'-salomat kelib to'xtadi.




Juft-juft hayvonlar va imyon
keltirgan insonlar huzur va
halovat ichida kemadan
tushdilar.





Va yer yuzi yana kechalari
yulduzlarni va kunduzlari gullarni
ko'rganda "Alloh naqadar go'zal
yaratgan", - deydigan insonlarga
to'ldi.





TARJIMONLAR
GURUHI

*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi. Duolaringizdan umidvormiz!*

 @nuur_uz